

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR LIRIKASINING TURKIYADA O'RGANILISHI

Dehqonova Sohiba Muhtorjonovna

Annotatsiya. Maqolada Bobur ijodi, xususan, lirikasining xorijda o'rganilishiga diqqat qaratilgan. Turk olimlari tomonidan qilingan ishlar haqida ma'lumot yig'ilgan va ularning yutuqlari e'tirof etilgan holda, Bobur she'riyatining jahonda tarqalishiga hissa qo'shayotgan tadqiqotlarning ba'zilari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: boburshunoslik, lirika, devon, qo'lyozma, kulliyot, ommaviy nashr, badiiyat.

Bugungi kunda dunyo adabiy jarayonida Bobur asarlari matni qo'lyozmalari va tarjimalarini o'rganishga qiziqish sharqshunos hamda tarjimonlar e'tiborini tortmoqda. Jahon boburshunoslari tomonidan shoir lirikasining matni, g'oya va mazmuni, uning badiiy mahorati kabi masalalarni ilmiy tadqiq qilishda o'zbek mumtoz adabiyoti tamoyillarini ishlab chiqishga hissa qo'shayotgan Turk olimlarining tadqiqotlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobur devonining qo'lyozma nusxalari bugungi kunda Angliya, Fransiya, Hindiston va Turkiya kutubxonalarida saqlanib kelinmoqda. Bu nusxalar orasida eng ishonchli va to'liq matn shubhasiz, Turkiyada saqlanayotgan qo'lyozmalardir. Mazkur qo'lyozmalar asosida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ham ko'lami kengdir.

XX asrga kelib shoir she'rlarini nashr etish an'anasini dastavval D.Ross (1910) boshlagan bo'lsa, so'ngra F.Ko'prulu (1915), A.Samaylovich (1917), S.Azimjonova va A.Qayumov (1965), S.Hasanov (1982), Sh.Yorqin (1983, 2008), A.Abdug'afurov (1994), B.Yujel (1995), H.Muhammadxo'jayev (1996), E.Ochilov (2007), B.Rahmonov (2008), A.A'zamov (2014) [Hayitov, 3] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Qardosh xalqlar adabiyoti tarixida Bobur asarlarini o'rganish va ommaviy nashrlarini e'lon qilish ishlari turkiyalik olim Mehmet Fuad Ko'prulu tomonidan bajarilgan. U Istanbulda shoir asarlarini topishga musharraf bo'lgandan so'ng, qo'lyozma haqida boburshunoslik tarixida ilk ma'lumotni aytib, u asosda 1915-yillarda "Milliy tatabbular" majmuasining 2-3- va 5- sonlarida "Boburshohning she'rlari" nomi bilan shoirning ma'lum bo'lmagan she'rlarini chop etgan va Turkiyada boburshunoslik ilmiga asos solgan. Olimning bu izlanishi boburshunoslik tarixida ingliz sharqshunosi Denisson Rossning [Ross D, 1910] shoir she'riyati borasida amalga oshirilgan tadqiqotidan keyingi o'ziga xos ish sifatida baholanadi. Biroq F.Ko'prulu "Milliy tatabbu'lar majmuasi"da shoir she'rlarini nashr etar ekan, ularni bir tartibda bermaydi.

Agarda “Boburnoma”da keltirilgan she’rlar bilan solishtirib chiqilsa, xronologik joylashish tartibida farqlar borligi ko‘zga tashlanadi.

F.Ko‘prulu o‘zi topgan Bobur kulliyotida “Risolayi volidiya” asari, shuningdek, o‘zbek, fors tilifda yozilgan she’rlar to‘plami, o‘zbek tilida nasr va nazmda bitgan maktub, fors tilida yozilgan maktubdan parcha hamda “Aruz risolasi” borligini qayd etadi. Maqolada shoir she’riyatini Husayn Boyqaro ijodi bilan qiyoslash orqali ustunlik jihatini ko‘rsatadi.

Olmoniyalik olim doctor Annamarie Shimmel ham o‘zining “Boburshoh va oilaviy iste’dod haqida” nomli tadqiqotida F.Ko‘prulu izoh berib o‘tgan Bobur devonining Istanbulda saqlanayotgan qo‘lyozmasi haqida to‘xtaladi. F.Ko‘pruluning qo‘lyozma asosida amalga oshirilgan ishlariga munosabat bildiradi va u 3743 raqami ostida saqlanishini ta’kidlaydi.

F.Ko‘prulu Bobur she’riyatining badiiy xususiyatlari va undagi badiiy san’atlar haqida u qadar to‘xtalmaydi. Ayni xulosa boshqa turkiyalik boburshunoslar tadqiqotiga ham tegishlidir. Ular ko‘proq Boburshohning iztirobli armonlarga to‘la mahzun siymosini gavdalantirishga harakat qiladi. Ular boburona she’rlarning teran badiiyati, takrorlanmas topilma san’ati haqida so‘z yuritadi. Ko‘proq shoirning har bir satrida davrning mislsiz ziddiyati, ijtimoiy fojealar, porloq g‘alabalar va xorlik-zorliklar azobini ko‘p va xo‘b tortgan muhtarib qalbi yaqqol aks etib turganini ko‘rsatib berishga intiladi. Shoir lirikasi bilan shug‘ullangan olim ayni shu nuqtai nazardan Bobur she’riyatining beqiyos ahamiyatini ta’kidlagan.

Zaki Validiy To‘g‘on (1890-1870) Bobur ijodi borasida tadqiqot olib borgan olimlardan yana biri. O‘zbek mumtoz adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, ijodkorlari haqida bir qator tadqiqotlar amalga oshirgan Z.V.To‘g‘onning Bobur ijodi yuzasidan qilgan izlanishlari shoir kulliyotining Tehron nusxasi haqida dastlabki ma’lumotni berganligida namoyon bo‘ladi. Olim 1960-yili Turkiyada nashr etilgan Islom tadqiqotlari institutining ilmiy to‘plamidagi “Tehqon kutubxonasidagi Hindistondan kelgan asarlarda chig‘atoy tilidagi temuriylar saltanati obidalari” nomli maqolasida Bobur kulliyotining Tehron nusxasi haqida so‘z yuritib, qo‘lyozma hijriy 931, milodiy 1524-25-yili, ya’ni Bobur Mirzo hayotligi davrida ko‘chirilgani, qo‘lyozma husniyat va kitobat san’atining yuksak namunasi ekanligini bayon etadi. Ushbu nusxadan “Mubayyin” asarining ham o‘rin olganligini aytadi. Z.V.To‘g‘onning ushbu ma’lumotlari keyinchalik bir qator boburshunos olimlarning bu qo‘lyozmaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Jumladan, professor S.Hasanov va yaponiyalik E.Mano kabi olimlarining bu boradagi izlanishlariga asosiy turtki bo‘ldi.

Yaponiyalik olim E.Mano yozadi: “Men Erondagi Saltanat kutubxonasida saqlanayotgan bir nodir qo‘lyozma haqida so‘z ochmoqchiman. Bu qo‘lyozma nusxani “Bobur asarlari to‘plami” deb atagan bo‘lib edim. Bobur nomi bilan bog‘langan qo‘lyozmaning tarkibi ilm olamiga ancha vaqtdan beri ma’lum edi. u haqdagi dastlabki

ma'lumotlarni turk olimi Z.V.To'g'on qayd qilib o'tgan... olimlar oarasida qo'lyozma mazmuni talqinida ayrim nuqsonlar bor. Bu qo'lyozma tarkibiga "Mubayyin", "Risola", "Aruz risolasi", "Boburnoma" va "Volidiya" risolalari kiradi. Ushbu qo'lyozmaga Bobur she'rlar to'plami – devoni kiritilmagan. Shu bois bu qo'lyozmani Bobur kulliyoti yoki mukammal asarlari to'plami deyish o'rinli emas" [Eji Mano, 9].

Professor S.Hasanov Saltanat kutubxonasida saqlanayotgan Bobur kulliyoti haqida shunday yozadi: "Bu qo'lyozma Tehronning Saltanat kutubxonasida saqlanayotgani haqida birinchi bor Zaki Validiy To'g'onning "Tehron kutubxonalarida Hindistondan kelgan asarlarda chig'atoy tilidagi Temuriylar san'ati obidalari" nomi bilan Islom tadqiqotlari institutining to'plamida 1960-yil nashr etilgan maqolasida xabar berilgan. So'ngra bu borada eronlik olim B.Otabiy, yaponiyalik olim E.Mano izlanishlar olib bordi. Z.V.To'g'on Bobur asarlari qo'lyozmasining eng qadimgi va eng nodir nusxasi Eronda saqlanayotganligini yozadi. Biroq 2005-yilda Tehronga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyamiz natijasida ilgari Saltanat kutubxonasida saqlangan Bobur asarlari qo'lyozmasi endilikda Tehron Milliy kutubxonasida saqlanayotganligi aniqlandi. Qo'lyozma Boburning "Mubayyin", "Aruz risolasi", "Boburnoma" va "Volidiya" asarlaridan iborat bo'lib, jami 1036 sahifani tashkil etadi"[Hasanov, 10.].

Ali Fuad Bilkan (1963) – Bobur she'riyati haqida tadqiqot olib borgan, shuningdek, "Risolayi volidiya"ni (2001) turk tiliga tarjima qilgan olim sanaladi. Uning nomzodlik va doktorlik ilmiy ishi qadimgi turk adabiyoti yo'nalishida. A.F.Bilkan doktorlik dissertatsiyasida, asosan, XVII asr ijtimoiy madaniy va adabiy hayotiga oid mavzularni tilga oladi. Olimning undan keying izlanishlarida Hindistondagi turkcha qo'lyozma matnlar haqida so'z boradi. A.F.Bilkan Hindiston kutubxonalarida turkcha qo'lyozmalar katalogini tayyorlagan. Olimning Bobur ijodiga qiziqishi shu paytdan boshlanadi. Uning shoir she'riyati haqidagi qarashlari "Bobur devoni"da va "Boburnoma"da Hindiston hayotining ifodalanishi" nomli maqolasida o'z aksini topgan. Shuningdek, uning "Hindistondan keltirilgan turk adabiyoti" (1998), "Boburning "Risolayi volidiya" asari" (1999) nomli maqolasi va "Risolayi volidiya" asarining turk tiliga qilgan tarjimasi (2001) boburshunoslik sohasiga doir tadqiqotlaridir. Olimning "Bobur devoni"da va "Boburnomada" Hindiston hayotining ifodalanishi" nomli maqolasida shoirning samimiy fikrlari she'rlarida ham o'z ifodasini topganligi qayd etiladi. Muallif Bobur Mirzoning Hindistondagi hayotini yoritar ekan, maqolaga doir devonining Rampur nusxasini asos qilib oladi. U avvalo, Boburning Hindiston o'lkasiga shahid bo'lish uchun kelganini, ammo Allohning lutfi bilan g'oziylik martabasiga erishgani bilan bog'liq jihatga to'xtaladi.

Ma'lum bo'lishicha, Bobur Hindistondek ulkan mamlakatni qo'lga kiritishiga va hukmdori bo'lishiga qaramasdan, bu yerdagi hayot tarzidan unchalik ham mamnun bo'lmagani ayon bo'ladi. A.F.Bilkan maqolada Bobur Hindistonni zabt etganidan

so'ng u yerning iqlimi va yashash tarziga ko'nika olmagan ba'zi beklarning Kobulga qaytishi bilan bog'liq jihatlarga ham to'xtaladi.

Yujel Bilol – tilshunos, “Bobur devoni”ning Istanbul qo'lyozmasi asosida shoir she'rlarining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlagan olim. U Bobur shaxsiyati va yaratgan asarlarining chin muxlisiga aylangan holda, yillar mobaynida bu e'tiqodiga butunlay sodiq qolib, muttasil ravishda shu mavzuda jiddiy izlanishda bo'lgan, turkiy, forsiy va arabiy tillarni mukammal egallagan. Uning Bobur she'riyati borasidagi muayyan izlanishlari boburshunoslikda katta ahamiyatga ega. Turk olimining bu ilmga qo'shgan eng katta hisyasi “Bobur devoni”ning boshqa ilmiy nashrlarga nisbatan mukammal turkcha nashrini tayyorlagani bilan o'lchanadi.

Ushbu tarjima shoir she'riyatining barcha xususiyatlarini o'rganishda muhim hisoblanadi. Unda “Bobur devoni” qo'lyozmalarining matni va tiliga doir qimmatli ma'lumotlar aytiladi. Umuman, bu asar Bobur she'riyati haqida kitobxonga keng ma'lumotlar beradi. Ammo bu tadqiqot ishida ham Boburning badiiy mahorati masalalari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ochib berilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Bobur lirikasi turk olimlari tomonidan ko'p bora o'rganilgan bo'lsa-da, hali ham ochilmagan qirralari o'z tadqiqini kutib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eji Mano. Bobur asarlari to'plamining Tehron nusxasi. – Toshkent, 2008. – B.189.
2. Hasanov S. Bobur asarlari qo'lyozmalarining o'rganilishi va “Kulliyoti Bobur” haqida//Adabiyot ko'zgusi. – Toshkent, 2008. №10, – B.21.
3. Hayitov Sh. Bobur ijodining xorijda o'rganilishi//Fil.fan.b.falsafa doktori (PhD) diss... – Toshkent, 2018. – B.152.
4. Ross D. collection of Poems by the emperor. Bobur. Divan-I. – Kalkutta, 1910.